

YOSH OILALARDA PSIXOLOGIK MOSLASHUV MUAMMOLARI

Sanayeva Sevinch Sadridin qizi

TAFU talabasi

Mavlyanova Surayo

Ilmiy raxbar : TAFU Psixologiyasi Kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh oilalarda psixologik moslashuvdagi qiyinchiliklar , oilaviy nizolar , tushunmovchiliklar va ayrim hollarda ajralishlarga olib kelishi mumkinligi yosh oilalarda psixologik moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi subyektiv va obyektiv omillar ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va madaniy qadriyatlarning o'rni haqida keltirilgan .

Kalit so'zlar : Psixologik moslashuv , ijtimoiy institutlar , nikoh , ajrim , qadriyatlar , ijtimoiylashuv , konflikt , kommunikatsiya , oilaviy qadriyatlar .

Аннотация : В данной статье рассматривается роль субъективных и объективных факторов, социально-экономических условий и культурных ценностей, влияющих на процесс психологической адаптации в молодых семьях, что может привести к трудностям в психологической адаптации, семейным конфликтам, недопониманию, а в некоторых случаях и к разводам.

Ключевые слова : Психологическая адаптация, социальные институты, брак, развод, ценности, социализация, конфликт, общение, семейные ценности.

Abstract: This article discusses the role of subjective and objective factors, socio-economic conditions and cultural values, influencing the process of psychological adaptation in young families, which can lead to difficulties in psychological adaptation, family conflicts, misunderstandings, and in some cases, divorces.

Keywords : Psychological adaptation, social institutions, marriage, divorce, values, socialization, conflict, communication, family values .

KIRISH .

Oila jamiyatning muhim ijtimoiy instituti hisoblanib , uning barqarorligi jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatib kelmoqda .Ayniqsa, yosh oilalarda nikohning dastlabki yillarida psixologik moslashuv jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi . Ushbu davrda er-xotin o'zaro xarakter , qadriyat , dunyoqarash va hayotiy maqsadlarni muvofiqlashtirishga harakat qiladi albatta bu har bir yosh oilada moslashuv jarayoni ko'plab qiyinchiliklar , nizolarni yuzaga keltiradi .

Yosh oilalarning psixologik moslashuvi -bu shaxsning yangi ijtimoiy muhitga , jumladan oilaviy hayotga ruhiy, emotsional va xulq-atvor jihatdan moslashish jarayonidir . Yosh oilalarda bu jarayon er va xotinning bir-birining shaxsiy xususiyatlari , odatlari va ehtiyojlarini qabul qilishi bilan bog'liq .

Moslashuv quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- Emotsional moslashuv (his-tuyg'ularni boshqarish);
- Ijtimoiy-rol moslashuvi (er va xotin rollarini anglash);

- Kommunikativ moslashuv (muloqot madaniyati);
- Maishiy va iqtisodiy moslashuv (uy-ro'zg'or va moliyaviy masalalar).

Ikki insonning psixologik moslashuvidagi muammolarining asosiy sabablari :

1. Ko'plab yoshlar nikohdan oldin oilaviy hayotni ideallashtiradi. Real jarayonlar esa tasavvurlarga mos kelmaganda , ruhiy zo'riqish yuzaga keladi.

2. Muloqot yetishmovchiligi.

O'z fikrini ochiq bayon qilmaslik, muammolarni yashirish yoki agressiv tarzda ifodalash nizolarga olib keladi .

3. Qarindoshlar aralashuvi -yosh oilalarda ota-ona yoki yaqin qarindoshlarning haddan tashqari aralashuvi mustaqil qaror qabul qilishga to'qinlik qiladi .

4. Moliyaviy qiyinchiliklar -Daromadning yetishmasligi, yetishmovchiliklar tufayli kelishmovchiliklar psixologik bosimni ham kuchaytiradi .

5. Psixologik tayyorgarlikning yetarli emasligi-Nikohga kirishdan oldin psixologik bilim va ko'nikmalarning yetishmasligi moslashuv jarayonini murakkablashtiradi .

Psixologik moslashuv muammolarining oqibatlari

Agar moslashuv muammolari vaqtida bartaraf etilmasa, quyidagi holatlar yuzaga kelishi mumkin:

- Doimiy nizolar va ishonchsizlik;
- Emotsional sovuqlik;
- Ruhiiy tushkunlik va stress;
- Ajralish xavfining ortishi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yosh oilalarda psixologik moslashuv muammolari psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlarida keng o'rganilgan mavzulardan biridir. Tadqiqotlar asosan oilaviy munosabatlarning dastlabki bosqichida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, er-xotinlar o'rtasidagi o'zaro moslashuv mexanizmlari va konfliktlarning oldini olish masalalariga qaratilgan.

Rus va xorijiy olimlar orasida A.Ya.Varga , V.Satir, E.Erikson, J.Gottman, A.I.Antonov kabi tadqiqotchilar oilaviy moslashuvni shaxslararo munosabatlar va emotsional yaqinlik bilan bog'liq holda tahlil qilganlar . Ularning fikricha , nikohning dastlabki yillari oilaning kelajakdagi barqarorligini belgilovchi muhim davr hisoblanadi .

V.Satir oilaviy tizim nazariyasida yosh oilalarda moslashuv jarayonini muloqot sifati va emotsional ochiqlik orqali izohlaydi . U sog'lom oilaviy muhitni yaratishda samimiy muloqot va o'zaro qo'llab -quvvatlashning ahamiyatini ta'kidlaydi .

E.Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga ko'ra , yoshlik davrida „yaqinlikka erishish yoki yakkalanib qolish “muammosi dolzarb bo'lib , bu holat yosh oilalarda psixologik moslashuv darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi .

O'zbek olimlari orasida oilaviy munosabatlar masalasini M. Davletshin, G' Shoumarov, R. Sunnatova, N. Karimova kabi tadqiqotchilar o'rgangan. Ularning ishlarida milliy mentalitet, urf-odatlar va oilaviy qadriyatlarning yosh oilalar moslashuviga ta'siri alohida ko'rsatib berilgan.

NATIJALAR

Yosh oilalarda psixologik muammolarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan tadqiqot va amaliy ishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, psixologik moslashuv darajasi ko'p jihatdan er-xotinlar o'rtasidagi muloqot sifati, o'zaro tushunish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga bog'liqdir.

O'tkazilgan so'rovnomalar va suhbatlar natijalariga ko'ra, yosh oilalarning katta qismida nikohning dastlabki 1–3 yili davomida muayyan psixologik qiyinchiliklar kuzatilgan. Ularning asosiylari muloqotdagi tushunmovchiliklar, emotsional zo'riqish va oilaviy rollarning to'liq shakllanmaganligi bilan bog'liq.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yosh oilalarda psixologik muammolarni bartaraf etishda tizimli va kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Faqatgina muammolarni aniqlash emas, balki ularni oldini olishga qaratilgan psixologik-profilaktik ishlar ham yuqori samaradorlikka ega.

Shuningdek, tadqiqot natijalari yosh oilalarda psixologik muammolar ko'proq nikohning dastlabki yillarida yuzaga kelishini va aynan shu davrda psixologik yordam ko'rsatish eng samarali ekanligini ko'rsatdi.

Yosh oilalarda psixologik muammolar bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-amaliy ishlar ijobiy natijalar bermoqda.

Tadqiqot natijalari yosh oilalarda psixologik muammolarni bartaraf etishda psixologik xizmatlarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, yosh oilalarda olib borilayotgan psixologik ishlar oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, nizolarni oldini olish va sog'lom psixologik muhitni shakllantirishda samarali ekanligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu yo'nalishdagi tizimli va uzluksiz ishlar yosh oilalarning barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

XULOSA

1. Psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish – nikoh oldi kurslar va treninglar orqali er-xotinlarga oilaviy rollarni tushuntirish, muloqot va nizolarni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish.

2. Profilaktik psixologik ishlarni yo'lga qo'yish – yosh oilalarda psixologik konsultatsiyalar va guruh mashg'ulotlarini muntazam tashkil etish.

3. Muloqot madaniyatini rivojlantirish – oilaviy suhbatlar, davra suhbatlari va interaktiv mashg'ulotlar orqali er-xotinlar o'rtasida ochiq va samimiy muloqotni targ'ib qilish.

4. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlash – oilalarga psixologik, iqtisodiy va ma'naviy yordam ko'rsatadigan jamiyat institutlarini faol jalb etish.

5. Milliy qadriyatlarni hisobga olgan psixologik yondashuv – oilaviy maslahat va treninglarda mahalliy an'analar, qadriyatlar va urf-odatlarini hisobga olish, bu orqali yosh oilalarda psixologik moslashuv jarayonini soddalashtirish.

Yosh oilalarda psixologik moslashuv muammolari jamiyat psixologiyasi va oila psixologiyasi sohasida dolzarb tadqiqot yo'nalishi bo'lib, bu muammo oilaviy barqarorlik, shaxsiy farovonlik, shuningdek bolalar psixologik rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Ilmiy adabiyotlar yosh oilalarning psixologik muammolari ijtimoiy, iqtisodiy va shaxslararo munosabatlar omillariga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Masalan, yosh oilalarda

moliyaviy stress, ijtimoiy izolyatsiya va o'zaro munosabatlardagi qiyinchiliklar psixologik zo'riqishga olib keladi, bu esa oilaviy moslashuv jarayonini murakkablashtiradi.

Umuman, fanda yosh oilani tavsiflaganda quyidagi mezonlar inobatga olinadi:

- juda yosh oila - nikohga kirgan vaqtdan toki 4 yilgacha;
- yosh oila - 5 yildan 9 yilgacha;
- o'rta oilaviy hayot muddati - 10 yildan 19 yilgacha;
- katta oilaviy hayot muddati - 20 yil va undan ortiq muddat turmush kechirganlar oilasi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatimizning asosiy tayanchi va ishonchi bu-oila hisoblanadi. Oila insonning tug'ilishi , tarbiyalanishi ,shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatda o'z yo'lini topishida muhim ahamiyat kasb etadi . Bugungi globallashuv davrida oilaning mustahkamligi muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda hamda jamiyatimiz ana shunday qadriyati ahilligi butun har tomonlama yuksalgan oilalar sonini ko'paytirishga e'tibor qaratmoqda desam mubolag'a bo'lmaydi .

Oiladagi shaxslarning bir-biriga bo'lgan munosabatiga qarab o'sha oilada farzandlar shakllanadi emotsional muhit kommunikatsiyalar yaxshi ravnaq topadi agarda ota-onalar o'rnak bo'lolmas ekan farzandlar kelajagi xavf ostida bo'lib boradi .

Bugungi kunda jamiyatimizda yuz berayotgan o'zgarishlar iqtisodiy bosimlar , kabi omillar oilaning psixologik ham pedagogik faoliyatiga ta'sir qilmoqda .Ajrallishlar soni ko'paymoqda , ota-onalar e'tibori kamaymoqda ,zo'ravonlik holatlari ko'payib bormoqda aynan mana shunday holatlarni yuzaga kelmasligi uchun yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash kerak , keyinchalik psixologik pedagogik muammolar sodir bo'lmaydi va ajrallishlar soni ham sezilarli darajada kamayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Психология семья: Учебник для педагогических Вузов // Автор: В.М.Каримова. - Т.:, 2007. - 316 с.
2. Bowen, Murray (1966), "Klinik amaliyotda oila nazariyasidan foydalanish", Klinik amaliyotda oilaviy terapiya (qayta nashr etilgan), Lanham, MD: Rowman and Littlefield (nashriyot 2004), 147-181 betlar,
3. Психология семейных отношений с основами семейного консультирования ред. Е. Г. Силяева М.: Издательский центр «Академия», 2002.
4. Тойирова Л. И. ПСИХОДИАГНОТИЧЕСКИЙ ИССЛЕДОВАНИЯ ПО ДВОЙНЫХ ПАР БЛИЗНЕЦОВ //Теория и практика современной науки. - 2018. - №. 5. - С. 1113-1115.
5. Mirzayeva K. "Yosh oilalarning ijtimoiy psixologik muammolari". Uzbek Scholar Journal. 2025
6. Bahodirova S.R., Talipova F.T. "Oiladagi munosabatlar va ularning psixologik xususiyatlari". TADQIQOTLAR. 2025.
7. Rahimova M. "Oilaga kelinning moslashish jarayonini psixologik jihatdan tadqiq etish". Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila. 2025